

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqanddagi Afg‘onlar faoliyati (1869-1879 yillarda)

*Salimov Behruz Zafar o’g’li
SamDU tarix fakulteti 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Mattiyev O’tkir*

Abstract

The migration of Afghan citizens in the middle of the 19th - early 20th centuries, the reasons for its origin, internal and external factors that influenced it, without expressing specific opinions, aspects close to the topic were mentioned or carried out for other purposes. In increased studies, small objects are considered as secondary issues. However, the reasons for the appearance of Afghan citizens in Samarkand, the problem of their place in the country's political, socio-economic and cultural life, have not been studied as a separate, integrated research object. This article describes the activities of Afghan citizens in Samarkand in the middle of the 19th century and the beginning of the 20th century.

Key words: Meyendorff, Fedchenko, Radlov, Nurota, Jizzakh, Amir, Qarovulbegi, Samarkand Governor General Court, Fergana Governorate Treasury.

KIRISH

Rus bosqini arafasida Samarqand shahrida 17 xil millat yashaganligi manbalarda qayd etilgan¹. Buning bir qator siyosiy, iqtisodiy sabablari mavjud, albatta. Sayyoh Meyendorfning ma'lumoticha, 1820 yilda shaharda 30 ming, sharqshunos N.Xanikovning fikricha, 1841 yilda 25 ming, venger sayyohi A.Vamberining fikricha, 1863 yilda 20 ming, sharqshunos V.V.Radlovnning

¹Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX и начале XX вв. Самарканд 1970 г.-С.109.

ma'lumotlariga ko'ra, 1868 yilda 10 ming, A.P.Fedchenko ma'lumoti bo'yicha, 1869 yilda 30 ming aholi yashagan².

Turli siyosiy jarayonlar natijasida kelib chiqqan nizolar oqibatida shahar aholisi goh ko'payib, goh esa kamayib turgan. Tadqiqot ob'ekti bo'lgan ushbu davrni yorituvchi manbalarning eng ishonchli turlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxividagi ma'lumotlardir.

ASOSIY QISM

Milliy Arxivi fondi hujjatlarida mintaqaga afg'on fuqarolarining kirib kelishi, ularnning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'rni haqida ma'lumotlar beradi. Milliy Arxivi ma'lumotlarida mamlakatimizga kirib kelgan afg'on siyosiy fuqarolari, jumladan Iskandarbek, Amir Abdurahmon, Ishoqbek va ularning avlodlarini mamlakatning iqtisodiy va siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy ta'minlash haqida gap boradi. Rossiya va Afg'oniston aloqalarini keng miqyosda boshlanishiga amir Do'stmuhammadxonning Ost-Indiya kompaniyasi bosimi ostida Rossiyadan yordam so'rashga majbur bo'lishi sabab bo'ladi³. Manbalar tahlili asosida imperiya siyosatchilari dastlab afg'on shahzodalaridan Iskandarbekni qo'llab-quvvatlaganiga guvoh bo'lish mumkin.

Iskandarbek ona tomondan Do'stmuhammadxonga nevara bo'lib, dastlab Buxoro amirining xizmatida bo'lgan. U amir tomonidan yuqori harbiy lavozimga tayinlangan. Uning qo'l ostida afg'on jangchilaridan iborat harbiy guruh bo'lgan. Rossiya imperiyasi bosqini davrida Nurota bekligidagi janglarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rayotganda noma'lum sababga ko'ra, o'limga hukm qilinadi. Iskandarbek buni sezib qolib, Jizzaxda turgan rus qo'shinlari tomoniga o'tib ketadi. Bu haqda A.P.Xoroshxin ham ma'lumot berib o'tgan. Uning yozishicha,

²Самарқанднинг ўрганилаётган давр аҳолиси бўйича Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX- начала XX вв. Автореф.дис.канд.ист.наук.Ташкент 2001.- С.28./Ирискулов О.Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд шаҳрида ижтимоий – иқтисодий ва маданий жараёнлар// Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд .2019.-50 б./ Нормуродова Г.Б. Социальные страты Самаркандской области в конце XIX начале – XX века: исторический анализ Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 2011.-28 с. тадқиқотларида муфассал маълумот берилган.

³Евдокимова А.А.История страны Востока в новое время. Уфа 2009 г.-С.128.

Iskandarbek amir sarkardalarini o‘ldirib, Jizzaxda turgan rus qo‘sishinlariga kelib qo‘shilgan o‘scha vaqtda uning qo‘l ostida 286 kishilik otryad bo‘lib, ular turli kalibrdagи pistoletlar, ikki stvolli miltiqlar, ingliz karabini (50 tadan), 2 to‘p va qalqonlar bilan qurollanganlar hamda ularning 30 tacha otlari bo‘lgan⁴. Iskandarbek faoliyati arxiv hujjatlarida shuningdek, tarixchilar tomonidan o‘rganilgan. H.Ziyoevning yozishicha, Iskandarbek amir qo‘sishinlari tomoniga o‘tgan. Uni biz avvalroq Toshkent mudofaasiga qo‘shilganidan ham bilishimiz mumkin. Jizzax uezdi boshlig‘i Nosovichning yozishicha, uning huzuriga 1 aprel kuni ikki nafar afg‘on – Nurmuhammad va Muhammad G‘amli kelib, rus armiyasiga o‘tish istagini bildirgan. Yana bir afg‘on Iskandarxonning xatini keltirgan. Unda yozilishicha, Iskandarbek bundan so‘ng rus armiyasiga xizmat qilishini, Buxoro armiyasiga xizmat qilmasligini bildirgan va javobni Ana-Qishloqda kutayotganligini yozgan. Ushbu ma’lumotlar Samarqand general-gubernatorligi mahkamasi hujjatlarida №:1358 raqami bilan qayd etilgan⁵. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari asli kelib chiqishi afg‘on bo‘lgan va Buxoro amirining xizmatida bo‘lgan ushbu sarkardaga ishonmasdan, u haqda ko‘plab ma’lumotlarni to‘plagan va imperiya manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qilgan. Xuddi shu joyda Iskandarxon haqida quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Iskandar Do‘stmuhhammadxonga ona tarafidan nabira, SHerali bilan kelishmay Buxoroga kelgan. Buxoro amiri uni afg‘on batal’oni boshlig‘i etib tayinlaydi. 150 kishilik afg‘on batal’oni Iskandarbek bilan Erjar jangida qatnashgan edi”⁶. Qorovulbegi Inga-Tillaning bildirishicha, Iskandarbek boshchiligidagi afg‘onlar Nurota yaqinida ikki beklikni bosib olib, ayrim sabablarga ko‘ra beklarning boshini kesgan. Ularning otryadida jami 286 kishi bo‘lgan⁷. Iskandarbekning sarkardalik qobiliyatidan foydalanish ruslarga ancha ish bergen edi. Hatto imperator Iskandarbek bilan Konstantin saroyida uchrashib, unga

⁴Хорошхин А.П.Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СанктПетербург. Типография и хромолитография А. Траншева. Стременная. № 12. 1876 г.-275 с.

⁵Mattiiev O`B. O`tmishga nazar jurnalı, XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi 19-bet Toshkent 2019.

⁶Mattiiev O`B. O`tmishga nazar jurnalı, XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi 19-bet Toshkent 2019.

⁷Шу манба.-Б.11.

podpolkovnik unvonini beradi va rus armiyasiga qo‘mondon sifatida jalg‘etadi⁸. Biroq, Iskandarbekda doimo vatan himoyasi uchun kurashish tuyg‘usi kuchli bo‘lganligi sababli, imperiya hukumati doimo ham unga ishonavermagan. Buni sezgan Iskandarbek Rossiya xizmatidan qochib, Hindistonga ketadi. Britaniya imperiyasi ham undan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishga harakat qilib ko‘radi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari asli kelib chiqishi afg‘on bo‘lgan va Buxoro amirining xizmatida bo‘lgan ushbu sarkardaga ishonmasdan, u haqda ko‘plab ma’lumotlarni to‘plaganlar va imperiya manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qilganlar. Lekin Iskandarbek ham Rossiya imperiyasiga qattiq bog‘lanib qolmaslikka harakat qilgan va ularning kelgusida o‘ziga nisbatan munosabati o‘zgarishini sezgan. U 1871 yilda Tehrondagi ukasi SHohnavozxoniga yozgan maktubida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan. “Ular bizni odam deb hisoblashmaydi va varvar deb atashadi....”⁹. Iskandarbekning so‘nggi kunlari Seyistonda o‘tadi. U to‘g‘risida ko‘plab tarixiy fikrlar bildirilib o‘tilgan. Jumladan: V.V.Radlov uni o‘lja uchun bosh kesuvchi deb, Skayler ajoyib qutqaruvchi deb, Terent’ev esa O‘rta Osiyodagi eng yaxshi sarkadalardan biri, deb ta’riflagan¹⁰. Xoroshxinning afg‘on fuqarolari to‘g‘risida bergen ma’lumotlari juda ozchilikni tashkil etsa-da, tadqiqot uchun o‘ta muhim manba sanaladi. Uning ma’lumotlari afg‘on fuqarolarining ijtimoiy hayotiga ham daxldordir. SHuningdek, afg‘on fuqarolari Samarqand istilosida rus askarlari tarafida turib ham jang qilganligi manbalarda qayd etilgan. Ana shu afg‘on askarlaridan keyinchalik imperiya hukumati militsiya qo‘sishinlarini tuzadi. Bu militsiya qo‘sishinlar, Xoroshxinning yozishicha, umrini faqat qovoqxonalarda o‘tkazgan¹¹. Afg‘on fuqarolari bu paytda g‘olib qo‘sish tomonida bo‘lganligi sababli ham mahalliy aholiga bepisandlik bilan qaragan hamda ular o‘ta jahldor odamlar hisoblanib, mahalliy aholi ularni shu xislati uchun ham unchalik

⁸Mattiiev O`B. O`tmishga nazar jurnali, XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg‘on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi 19-bet Toshkent 2019

⁹ Mattiiev O`B. O`tmishga nazar jurnali, XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg‘on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi 19-bet Toshkent 2019

¹⁰Бартольд В.В.Сочинения.Том-II.часть-1.М. “Восточная литература”.1963 г.-С.417.

¹¹Хорошхин А.П.Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб. Типография и хромолитография А. Траншева. Стременная. № 12. 1876 г.-С.216.

yoqtirmagan¹². Rossiya imperiyasining afg'on siyosiy fuqarolariga ko'rsatayotgan g'amxo'rligi bejizga emas edi, albatta. Bundan siyosiy maqsadlar ko'zlangani sir bo'limgan. 1873 yilgi Britaniya va Rossiya kelishuviga ko'ra, Rossiya imperiyasi Afg'onistondan voz kechdi. Lekin bu to'liq holatni anglatmaydi. CHunki, Rossiya hukumati Samarqanddagi siyosiy afg'on fuqarolari, ayniqsa, Iskandarbekdan keyingi mo'ljalda turgan shaxs sardor Abdurahmonni yashirinchcha qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Milliy Arxivning fondlarida sardorning Samarqandga kelishi, uning kutib olinishi, Toshkentga, K. Kaufman huzuriga jo'natalishi va uning Afg'onistonga qaytib siyosiy hokimiyatni egallashi to'g'risida bir talay ma'lumotlar uchraydi va bu holatga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Amir Abdurahmonning Samarqanddagi sardorlik maqomidagi yillari tarixchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Amir Abdurahmon o'z davrining etuk bilimli, uzoqni ko'ra biladigan, favqulodda noyob iste'dod sohibi bo'lgan hukmdorlaridan ediki, bu uning keyinchalik Afg'oniston hukmdori bo'lgach, amalga oshirgan ishlarida namoyon bo'ldi. Uning harbiy sohadagi bilimlarini oshishiga fon Kaufman ham katta hissa qo'shgan. Masalan, Abdurahmonxонни Salor daryosi bo'yida elektr simi yordamida portlatilgan mina juda qiziqtirgan. Uning uchun rus akademigi E.X.Lensing fizika kitobi zudlik bilan afg'on tiliga tarjima qilinadi. Abdurahmonxon keyinchalik Samarqand qarorgohida bunday portlatishlarni tez-tez takrorlab turgan. Bu uning keyinchalik Qobulda inliz mutaxassislari yordamida harbiy qurol-yarog' zavodini qurishiga ham sabab bo'ladi. Abdurahmonxon Samarqandda yashagan davrida, 1872 yilda o'g'li Xabibullaxon tug'iladi. Ayni Samarqand zaminida Xabibullaxon davlat boshqaruvini o'rgana boshlagan¹³. Sardor Samarqandda yashagan davrida ham Afg'onistonning ichki va tashqi siyosatidan savdogarlar, sayyoohlар va ayg'oqchilar vositasida xabardor bo'lib turdi. Amir SHeralixon taxtni egallagach, sardor Eronga qochayotganda uning ukalari yangi

¹²Хорошхин А.П.Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб. Типография и хромолитография А. Траншева. Стременная. № 12. 1876 г.-510 с.

¹³Mattiiev O`B. XIX-XX asrlarda o`rtacha osiyodagi yashagan afg'on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 353-bet

hukmdorning qo‘lida qolib ketadi¹⁴. Amir Rossiya homiyligida ularni ham ozod qilgan. Amir Abdurahmon o‘z qo‘li bilan K. Kaufmanga xat yozib, ukalari Muhammad Safar, Muhammad Azizzon, Muhammad Muhsinxonlar SHerali ta’qibidan qutulib, Samarqandga kelganligini ma’lum qiladi. Kaufman ularga Farg‘ona viloyati kirimi hisobidan mablag‘ ajratadi¹⁵. Kaufmanning bu ishi bevosita uning o‘z xohishi bo‘lmay, bu imperiya hukumatining talabidan kelib chiqqan ish edi. Fikrimizni general-gubernatorlik mahkamasidagi №185 raqamli ko‘rsatma ham tasdiqlaydi. Unda yozilishicha, 1880 yil 17 oktyabrda Butun Rossiya Imperatorining Samarqand general-gubernatorligi mahkamasidagi №185 raqami bilan qayd etilgan afg‘on sardorlari Muhammad Safar, Muhammad Azizzon, Sardor Muhammad Muhsinxonga 3 ming rubl yillik nafaqa berish to‘g‘risidagi qarori ham tasdiqlaydi¹⁶.

XULOSA

Afg‘on fuqarolarining xarajatlari uchun mablag‘lar turli siyosiy sabablardan kelib chiqqan holda Farg‘ona viloyati g‘aznachilik bo‘limidan ko‘chirilgan. Manbalarda shu maqsadlar yo‘lida Farg‘ona gubernatorligi g‘aznachiligi 5 ming rublni Samarqand g‘aznasiga o‘tkazganligi qayd etilgan. Sardor Abdurahmon Samarqandda yashagan vaqtlarida tashqi razvedka ma’lumotlaridan tashqari, o‘zi bilan birga kelgan afg‘on fuqarolarini o‘z vataniga qaytarish va buning uchun Rossiya imperiyasidan moliyaviy ko‘mak olishga harakat qiladi. Imperiya tomonidan bunga ruxsat berilib, yo‘l xarajatlari uchun 280 rubl miqdorida mablag‘ ajratiladi. 1879 yil 21 apreldagi №3142 raqamli qarorga ko‘ra, Samarqand afg‘onlariga yana 500 rubl ajratilgan¹⁷ Afg‘on shahzodalarini qo‘llab-quvvatlash ishi shu bilan to‘xtab qolmaydi. Toshkentda K.Kaufman bilan uchrashib, ma’lum muddat yashagan Amir Abdurahmon doimiy yashash joyi ajratilgan Samarqandga

¹⁴Mattiiev O`B. XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 353-bet

¹⁵Mattiiev O`B. XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 358-bet

¹⁶Mattiiev O`B. XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 353-bet

¹⁷Mattiiev O`B. XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 353-bet

qaytadi. Tashqi ishlar vazirligi diplomatik amaldorining yozishicha 1879 yil 20 martdagি №159 ko'rsatmaga ko'ra, Amir Abdurahmon shu kuni ertalab Samarqandga yo'lga chiqqan¹⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mattiyev O`B. O`tmishga nazar jurnali, XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi. Toshkent, 2019.
2. Хорошхин А.П.Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СанктПетербург. Типография и хромолитография А. Траншева. Стременная. № 12. 1876 г.
3. Бартольд В.В.Сочинения.Том-II.часть-1.М. “Восточная литература”. Москва, 1963 г.
4. Евдокимова А.А.История страны Востока в новое время. Уфа 2009 г.
5. Сайдкулов Т.С. Самарканد во второй половине XIX и начале XX вв.Самарканд 1970 г.

¹⁸Mattiев О`Б. XIX-XX asrlarda o`rta osiyodagi yashagan afg`on fuqarolari faoliyatining tarixshunosligini yoritilishi, O`tmishga sayohat jurnali, Toshkent 2020 4-son 353-bet